I.f.n., Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti "Iqtisodiyot va buxgalteriya hisobi" kafedrasi katta o'qituvchisi

Nazarova Maryam Sharipovna

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti "Iqtisodiyot va buxgalteriya hisobi" kafedrasi katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada yalpi ichki va hududiy mahsulotning ko'payishida faol tadbirkorlikning o'mi, xorij mamlakatlari,O'zbekiston Respublikasidagi yalpi ichki mahsulot (YAIM) miqdorlarining o'zgarishi,aholi jon boshiga tushgan YAIM, Samarqand viloyatida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot (YAHM) miqdori, viloyat va ayrim tumanlarning 2022-yil yakunlari haqida fikr yuritilgan. Iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlarining solishtirma xulosalari, faol tadbirkorlikning YAIM va YAXM larning o'sishiga ta'siri, infratuzilma (xizmatlar) sohasidagi tuzilmalarning mahsulot yetishtirishda va iste'molchilarga o'z vaqtida sifatli holatda yetkazib berishdagi imkoniyatlari hamda yoshlarni, oilalarni biznes yo'naliishida bandligini ta'minlash, kambag'allikni qisqartirishdagi yo'llari haqida ilmiy-amaliy tavsiyalar hamda foydalilanigan manbalar ro'yxati berilgan.

Kalit so'zlar: YAIM, YAXM, aholi jon boshi, faol tadbirkorlik, xorij, infratuzilma, chorvachilik, dehqonchilik, rentabellik darsasi, bandlik, kambag'allik, iqtisodiy samaradorlik va h.k.

Abstract: In this scientific article, the role of active entrepreneurship in the increase of gross domestic and regional product, changes in the GDP of foreign countries, the Republic of Uzbekistan, GDP per capita, the amount of GTP produced in the Samarkand region, the results of the region and some districts in 2022. Comparative conclusions of economic efficiency indicators, the impact of active entrepreneurship on the growth of GDP and GTP, scientific and practical recommendations about the possibilities of structures in the field of infrastructure (services) in producing products and delivering them to consumers in a timely and high-quality condition, as well as ways to ensure the employment of young people and families in the field of business, reduce poverty, and the sources used are listed.

Key words: GDP, GTP, per capita, active entrepreneurship, abroad, Samarkand region, districts, infrastructure, animal husbandry, farming, profitability, employment, poverty, economic efficiency, etc.

Аннотация: В данной научной статье рассматривается роль активного предпринимательства в увеличении валового внутреннего и регионального продукта, изменениях в зарубежных странах, валовом внутреннем продукте (ВВП) в Республике Узбекистан, ВВП на душу населения, величине валового регионального продукта (ВРП) произведено в Самаркандской области, области и некоторых об итогах работы районов в 2022 году. Сравнительные выводы показателей экономической эффективности, влияние активного предпринимательства на рост ВВП и ВРП, научно-практические рекомендации о возможностях структур в сфере инфраструктуры (услуг) по производству продукции и доставке ее потребителям в своевременную и высокую -качество состояние, а также пути обеспечения занятости молодежи и семей в сфере бизнеса, снижения уровня бедности, а также перечень используемых источников.

Ключевые слова: ВВП, ВРП, на душу населения, активный бизнес, зарубежный, инфраструктура, животноводство, сельское хозяйство, рентабельность, занятость, бедность, экономическая эффективность и др.



KIRISH

“Kuchli raqib mavjud salohiyatingning to’liq ochilishiga xizmat qiladi, ojizi – loqaydlik kayfiyatini tug’diradi”, deydi Maxmudxon Toirov.

Respublikamizning YAIMi, viloyatlar va tumanlar YAXM larining ko’payishi hududlar taraqqiyotini ta’minlashda faol tadbirkorlik o’z o’rniga egadir. Yalpi ichki mahsulot (YAIM) – mamlakat iqtisodiy faoliyatining muayyan davr (oy, chorak, yil) davomidagi umumiy natijalarini tavsiflaydigan ko’rsatkichdir. Yalpi ichki mahsulot – bir yil davomida, bir davlat ichida ishlab chiqarilgan mahsulot va ko’rsatilgan xizmatlarning majmuyidir.

Dunyo mamlakatlarning YAIM bilan solishtirish imkoniyatlari mavjud bo’lganligi tufayli bu borada mamlakatimizda imkoniyatlар eshlklari ochilmoqda. Yalpi ichki va hududiy mahsulotning ko’payishida faol tadbirkorlikning natijalarini ko’rsatadi. 2023-yil uchun yalpi ichki mahsulot 1 068 044 mlrd so’m darajasida prognoz qilingan edi. YAIM o’sish sur’ati 5,3% ni, iste’mol narxlarining indeksi o’tgan yilning dekabriga nisbatan 9,5% ni tashkil etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Dunyo mamlakatlari YAIM miqdori,\$^[17]

1. AQSH 25 trln 346 mlrd 805 mln
2. Xitoy 19 trln 911 mlrd 593 mln
3. Yaponiya 4 trln 912 mlrd 147 mln
4. Germaniya 4 trln 256 mlrd 540 mln
5. Hindiston 3 trln 534 mlrd 743 mln
6. UK 3 trln 376 mlrd 003 mln
7. Fransiya 3 trln 140 mlrd 031 mln
8. Italiya 2 trln 221 mlrd 218 mln
9. Braziliya 2 trln 058 mlrd 330 mln
10. Kanada 1 trln 833 mlrd 274 mln
11. Rossiya 1 trln 829 mlrd 050 mln.
12. Janubiy Koreya 1 trln 804 mlrd 680 mln
13. Ispaniya 1 trln 748 mlrd 334 mln
14. Avstraliya 1 trln 739 mlrd 012
15. Meksika 1 trln 435 mlrd 560 mln.
16. Indoneziya 1 trln 322 mlrd.740 mln
17. Gollandiya 1 trln 289 mlrd 295 mln \$
18. Saudiya Arabistoni 1trln 040mlrd 166 mln
19. Turkiya 1 trln 013 mlrd 595 mln
20. Shveysariya 841 mlrd 969 mln

Ushbu maqolga amal qilgan holda yuqoridagi ma'lumotlarga hasad bilan emas, havas bilan qarab, mamlakatimizning YAIMini, hududlarimizning YAXMlarini ko’paytirishga faol tadbirkorlar, haqiqiy ishbilarmonlar, xalq manfaatini o’z manfaatidan ustun qo’yadigan biznesmenlar ko’payishi zaruriyati tug’ildi.

METODLAR

Monografik, statistik, taqqoslash va boshqa usullar yordamida tahlil qilganmiz.



TAHLILLAR VA ASOSIY NATIJALAR

YAIMning o'sishi mamlakatda ko'proq mahsulot va xizmatlar ishlab chiqarilganligini anglatadi va bu davlat budgetiga soliq tushumlarini ko'paytiradi. YAIMning kamayishi iqtisodiy tanazzulning belgisi bo'lishi mumkin: odamlar kamroq sotib oladi, kompaniyalar kamroq ishlab chiqaradi, biznes va davlat daromadlari pasayadi. Izlanishlar shuni aniqladiki, 2022-yilda O'zbekiston YAIM hajmi 80,4 mlrd dollarga ko'tarildi. Mamlakatimiz yalpi ichki mahsuloti (YAIM) 2022-yilda 5,7 foizga o'sib, 888,34 trln so'mni (80,4 mlrd dollarga yaqin) tashkil etdi. Aholi jon boshiga YAIM hajmi esa 2255 dollargacha oshganligi aniqlandi [13].

YAIMda sanoat mahsulotlarining ulushi 484,7 trln so'mga (+5,2 foiz), xizmatlar ko'rsatish –343,3 trln so'mga (+8,5 foiz), mahsulotlarga sof soliqlar – 60,3 trln so'mgacha oshdi. O'zbekistonning tovar aylanmasi 2023-yil 23,8 foizga oshib, 62,6 mlrd dollarni tashkil etdi. Savdo taqchilligi rekord darajada – 13,7 mlrd dollarga yetdi. Eksportning uchdan bir qismini rekord darajada sotilgan oltin tashkil etdi. Oziq-ovqat, neft va gaz importi keskin oshdi. 22-yanvar 2024-yil ma'lumotiga asosan iqtisodiy tahlil natijalarini o'rganganimizda, O'zbekistonning tashqi savdo aylanmasi 2023-yilda o'tgan yilga nisbatan 12 mlrd dollarga yoki 23,8 foizga o'sib, 62,57 mlrd dollarni tashkil etdi. Yil davomida eksport 23,8 foizga – 24,4 mlrd dollargacha, import 24 foiga – 30,1 mlrd dollargacha oshdi. Tashqi savdo taqchilligi 13,7 mlrd dollardan ortiqni tashkil etdi, bu 2022-yilga nisbatan 24,3 foizga ko'p (-11,03 mlrd dollar). Agar rekord darajadagi oltin eksporti va xizmatlar sohasidagi ijobjiy saldo bo'limganida, bu ko'rsatkich yanada yuqori bo'lardi. O'zbekiston 2023-yil dekabr oyida oltin eksport qilmadi. Ammo 12 oy ichida oltin sotuvi rekord daraja – 8,15 mlrd dollarga yetdi, bu 2022-yilgi ko'rsatkichdan deyarli ikki baravar ko'p.

Oziq-ovqat mahsulotlarini yetkazib berish yuqori darajada bo'lib: don va undan tayyorlangan mahsulotlar – 1,12 mlrd dollar (+5,3 foiz), shakar, shakar mahsulotlari va asal – 558,2 mln dollar (-2,3 foiz), qahva, choy, kakao, ziravorlar – 385,3 mln dollar (+23 foiz), o'simlik moylari va yog'lari – 354,9 mln dollar (+16,4 foiz), go'sht va go'sht mahsulotlari – 348,4 mln dollar (+9,1 foiz), sabzavot va mevalar – 348,4 mln dollar (+23,5 foiz), sut mahsulotlari va qush tuxumlari – 211,5 mln dollar (+31,7 foiz). Bunda ayrim mahsulot-tovarlar raqobat uchun xorijdan import qilingan, ayrimlari esa bizda yetishtirilmaydi yoki yetarli darajada bo'lmaydi. Faol tadbirkorlarimiz, haqiqiy ishbilarmonlarimiz va o'z manfaatini xalq manfaatidan ustun qo'yadigan biznesmenlarimizning asosiy vazifasi – YAIM va YAXM lar turi, miqdori va sifatini mahalliylashtirish va ularni yetishtirishni ko'paytirish, klasterlar faoliyatini takomillashtirishdan iboratdir. Mamlakatimizda YAIM va YAXM ni ko'paytirish bilan birga xizmat (infratuzilma) sohasida 2023-yil yakuni bo'yicha xizmatlar eksporti hajmi 5,8 mlrd dollarni yoki umumiy savdo eksporti hajmining 21,2 foizini tashkil etdi va 2022-yilga nisbatan 16,2 foizga oshdi. Xizmatlar eksportidagi asosiy ulush transport (43,2 foiz), sayohat (turizm, 41,4 foiz), telekommunikatsiya, kompyuter va axborot xizmatlari (8,5 foiz) va boshqa tadbirkorlik xizmatlariga (3,1 foiz) to'g'ri keldi. Xizmatlar importi 2,57 mlrd dollarni (+0,7 foiz) tashkil etdi. O'zbekistonga sanoat mahsulotlari yetkazib berish, ya'ni import hajmi 6,3 mlrd dollarga (+10 foiz) yetdi. Asosiy hajm Rossiya (2,17 mlrd dollar, ulushi 34,3 foiz) va Xitoy (1,95 mlrd dollar, 30,9 foiz), shuningdek, Qozog'iston (715,2 mln dollar, 11,3 foiz), Turkiya (353,6 mln dollar, 5,6 foiz) va Janubiy Koreya (209,6 mln dollar, 3,3 foiz) ulushiga to'g'ri keladi.

Taqqoslash uchun: 2022-yil oxirida Rossiya ulushi 42,3 foiz (2,4 mlrd dollar), Xitoy ulushi 21,9 foiz (1,25 mlrd dollar), Qozog'iston ulushi 12,5 foiz (721,5 mln dollar), Turkiya ulushi 5,3 foiz (306,2 mln dollar) va Janubiy Koreya ulushi 3,8 foizni (220 mln dollar) tashkil etgan. O'rtacha kurs bo'yicha AQSH dollarida hisoblanganda nominal YAIM 80,38 mlrd dollarni tashkil etdi, bu 2021-yilga nisbatan 11,18 mlrd dollarga ko'pdir. Aholi jon boshiga YAIM real ko'rinishda 3,5 foizga – 21,15 mln so'mdan 24,91 mln so'mga (2254,9 dollar) o'sdi.

Taqqoslash uchun, 2021-yilda 5,3 foizga, 2020-yilda pandemiya yilida esa 0,1 foizga o'sish qayd etilgan. 2021-yil yozida prezident Shavkat Mirziyoyev 2026-yilga borib O'zbekiston iqtisodiy o'sish sur'atlarini 1,5 barobarga oshirish va YAIM hajmini kamida 100 mlrd dollarga yetkazishni rejalashtirayotganini ta'kidlagan edi. 2022-yilda O'zbekiston YAIM hajmi ilk bor 80 mlrd dollardan oshdi. 2030-yilga borib YAIM \$160 mlrdni tashkil etishi rejalashtirilgan. 2021-yilda aholi jon boshiga YAIM 21 mln so'mdan ortiqni tashkil qildi. 2024-yilda YAIM ko'rsatkichini 100 mlrd dollardan oshirish mo'ljallanmoqda. 2023-yil 25-oktabrga respublikamizda aholi jon boshiga hisoblangan yalpi ichki mahsulot (YAIM) hajmi joriy narxlarda 20,7 million so'm (1 789,5 AQSH dollar) ni tashkil etdi. 2023-yilning yanvar-sentyabr oylarida O'zbekistonda yalpi ichki mahsulot hajmi 5,8 foizga o'sgan, aholi jon boshiga hisoblangan YAIM hajmi joriy narxlarda 20,7 mln so'm (1 789,5 AQSH dollar) ni tashkil etgan edi. 2023-yilning yanvar-sentyabr oylarida O'zbekistonda yalpi ichki mahsulot (YAIM) hajmi joriy narxlarda 751 trillion so'mni tashkil etgan. Statistika agentligi dastlabki ma'lumotlariga ko'ra, bu o'rtacha almashuv kursi (11 556,2 so'm) bo'yicha qariyb 65 milliard AQSH dollariga teng bo'ldi. Bu ko'rsatkich 2022-yilning mos davri bilan taqqoslaganda 5,8 foizga o'sgan. 2023-yilning yanvar-sentyabr oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAIM hajmi joriy narxlarda 20,7 million so'm (1 789,5 AQSH dollar) ni tashkil etib, 2022-yilning mos davri bilan taqqoslaganda 3,6 foizga oshgan. 2023-yilning 7-fevral ma'lumotiga ko'ra, o'tgan yilda O'zbekiston Respublikasi YAIM hajmi joriy narxlarda 888,3 trillion so'mni tashkil etdi va 2021-yil bilan taqqoslaganda 5,7 foizga



o'sgan. YAIMning o'sishi O'zbekistonda kishi boshiga yalpi ichki mahsulot 2,25 ming dollarga yetdi. O'zbekistonda 2022-yilda aholi jon boshiga hisoblangan yalpi ichki mahsulot (YAIM) hajmi joriy narxlarda 24,9 million so'mni yoki 2,25 ming dollarni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun 2021-yilda O'zbekistonda YAIM kishi boshiga 21 million so'm bo'lgan edi. Shuningdek, 2022-yilda aholi jon boshiga YAIM hajmining real o'sishi 2021-yilga nisbatan 3,5 foiz, 2018-yilga nisbatan esa 13,4 foiz bo'lgan. O'zbekiston doimiy aholisining o'ttacha soni 2018-yilda 32,9 mln kishi, 2019-yilda 33,5 mln kishi, 2020-yilda 34,2 mln kishi, 2021-yilda 34,9 mln kishi va 2022-yilda 35,6 mln kishini tashkil etgan edi. Aholi jon boshiga YAIM muayyan davrda joriy narxlardagi YAIM hajmini mamlakatning o'ttacha aholisi soniga bo'lish orqali aniqlanadi.

YAIMga qanday holatlar o'z ta'sirini ko'rsatishini quyidagilar bilan keltiramiz. Birinchidan, ish va ish haqi orqali ta'sir ko'rsatish mumkin. Agar kompaniya mahsulot miqdorini ko'paytirish uchun ishlab chiqarishni kengaytirsa, u yangi ishchilarni yollaydi va ish haqini oshiradi. Ikkinchidan, soliqlar orqali. Kompaniyalar o'z foydalariдан budgetga soliq to'laydi va ulardan davlat o'qituvchilar, shifokorlar va boshqa toifadagi ishchilarga ish haqi, ijtimoiy nafaqalar to'laydi. Fuqarolarni ish bilan ta'minlaydigan infratuzilma loyihibariga pul ajratadi. Shunga ko'ra, kompaniyalar qancha ko'p ishlasa, mahsulot ishlab chiqarsa va sotsa, ularning soliq tushumlari shunchalik yuqori bo'ladi va davlat ko'proq mablag' sarflashga qodir bo'ladi. Misol uchun, yo'llar va metrolar, tibbiy asbob-uskunalar va maktablarni ta'mirlash imkoniyatlari oshadi. Iqtisodiyot juda tez o'sganda, narxlar ham u bilan birga osmonga ko'tarilsa, yaxshi oqibatlarga olib kelmaydi. Biroq har qanday holatda ham bitta fuqaro uchun YAIMning o'sishi, ishsizlik ko'payganidan, aholi daromadlari pasayishidan yaxshiroqdir.

Xulosalarimiz:

1. Respublikamiz YAIM va Samarqand viloyatida yetishtirilgan YAHM haqidagi iqtisodiy tahlil natijalari berilgan;
2. Mamlakatimizda yetishtirilgan qishloq xo'jalik mahsulotlari va ularning eksporti natijalari ham berilgan;
3. Mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy holatini yaxshilash maqsadida sotilgan oltin haqida;
4. 85 ta xorij mamlakatlariga YAIM va YAHM lar sotuvi haqidagi tahliliy ma'lumotlar kiritilgan;
5. YAIM va YAHM larni ko'paytirish maqsadida jalb etilgan va jalb etilayotgan strategik rejalar berilgan; Investitsiyalarni jalb etish variantlari va imkoniyatlari berilgan;

Takliflarimiz:

1. YAIM va YAHM larni miqdorini ko'paytirish va sifati oshirish, jumladan, qishloq xo'jaligida klasterlar faoliyatini takomillashtirish, olim va mutaxassislar tavsiyalariga amal qilish zarur;
2. YAIM va YAHM larni ishlab chiqarish, tashish, saqlash, sublimatsiya qilish, qayta ishlash, xorijga sotish borasida doimiy tabirkorlarni emas, balki yangidan tayyorlangan mulkchilikning har xil turi yoki shaklida mehnat qilayotgan jamoalarni boshqarayotgan faol tadbirkorlarni, haqiqiy ishbilarmonlarni, xalq manfaatini o'z manfaatidan ustun qo'yuvchi biznesmenlarni ayniqsa mahsulotlarni unyodagi mavjud 242 ta xorij mamlakatlariga eksport qilish jarayonlarini tashkil qilishga va ushbu jarayonlarni boshqarishga jalb qilish maqsadga muvofiqdir.
3. Faoliyatini foyda olishga, pul topishga qaratilgan yo'naltirayotgan biznes vakilarini ish egasidir.,faoliyatini tashkil etish hamda samarali faoliyat olib borishini ta'minlash uchun, avvalo, unda ishlaydigan xodimlar,ishchilar,ayniqsa iqtisodchi va buxgalterlarini,ya'ni mutaxassislarini nazariy va amaliy jihatdan o'qitish, qayta malakasini oshirishga e'tiborni qaratish kerakdir.
4. Meva-sabzavotchilik klasterlari faoliyatini tashkil etish hamda samarali faoliyat olib borishi uchun nafaqat mahalliy va xorijiy sarmoyadorlarni, balki ularning mutaxassislarini ham jalb qilish zarur.
5. YAIM va YAHM yetishtiruvchi korxonalar menejer va marketologlarini, jumladan, tomorqa yer egalarini nazariy va amaliy bilim hamda malakalarini oshirish;
6. Mamlakatimizda bugungi kunda faoliyat ko'rsatayotgan 800 ta klasterlar menejerlarini, marketologlarini, mutaxassislarini, sohalar bo'yicha mas'ullarini, barcha xodim va ishlovchilarini qisqa kurslarda nazariy-amaliy malakasini oshirish uchun joylarda tajribali oliy o'quv yurtlari professor-o'qituvchilarini hamda tajribali mahalliy va xorijiy mutaxassislar yordamida o'qitish maqsadga muvofiqdir.
7. Tashkil etilgan va etilayotgan mulkchilikning har xil turlari va shakllarida faoliyat yuritayotgan subyektlarga innovatsion texnika va texnologiyalarni xorij mamlakatlaridan olib kelishda, ularni mutaxassislarini bilan birga kelishilgan muddatlarga jalb qilish shartnomalarini tuzish to'g'ri bo'lar edi. Chunki mahalliy kadrlarni o'rgatish imkoniyatlari yaratiladi;



8. Chiqindilarni subyektlardan o‘z vaqtida muddatlarga amal qilgan holda yig‘ishtirish, ularni qayta ish-lash jarayonlarini amalga oshirishda mahalliy va xorij tajribalarga amal qilish uchun xorij texnikasi va mutaxassislarini jalg qilish va ularni talab darajasida yashash, ishlashlariga barcha sharoitlarni joylarda yaratib berish;
9. Kambag‘allikni kamaytirish va ishsizlikka barham berish uchun joylarda, ayniqsa uzoq qishloqlarda faol tadbirkorlarni, haqiqiy ishbilarmonlarni, xalq manfaatini shaxsiy manfaatidan ustun qo‘yadigan biznes-menlarni jalg qilish bilan birgalikda klasterlarda mulkchilikning har xil turlari (ishlab chiqarish, tijorat, moliyaviy va konsalting turlari) va shakllarini (yakka tartibdagi tadbirkorlik; xususiy tadbirkorlik; jamoa tadbirkorligi; aralash tadbirkorlik) hayotga joriy etish, klasterlar qoshida qisqa muddatli o‘quv kurslarini tashkil etish, ayniqsa yoshlarni o‘qitib malakasini oshirish va ularni boshqarish zarur;
10. Mamlakatning barcha yo‘nalishlarida shaffoflikni (korrupsiyaga yo‘l qo‘ymaslikni) amalga oshirish maq-sadida taraqqiyotga erishish uchun raqamli iqtisodiyotga o‘tishni tezlashtirish, shu sohadagi bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallash dasturini qaytadan tayyorlash va joriy etishni tezlashtirish zarur hamda shartdir;
11. Xotin-qizlarni, ta’minlashda va kambag‘allikni kamaytirishda infratuzilma sohasida AQSH, Yaponiya, Kanada, Xitoy, Janubiy Koreya mamlakatlari bilan qo‘shma loyiҳalar va qo‘shma korxonalarini ko‘payti-rish kerak.

Foydalaniлgan manbalar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T.: O‘zbekiston. 2023.
2. O‘zbekiston-2030 strategik dasturi, 2023-yil 11-sentyabr.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentning 11.09.2023-yildagi PQ-300-son, “O‘ZBEKISTON – 2030” Strategiyasini 2023-yil sifatli va o‘z vaqtida amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarori (12.09.2023).
4. O‘zbekiston Prezidentining “O‘zbekiston respublikasi iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi hamda uning tizim tashkilotlari faoliyatini tashkil etish” to‘g‘risidagi Qarori, 2020-yil 26-mart, PQ4653- sonli.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oila va xotin-qizlarni tizimli qo‘llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadal-lashtirish choratadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni, 2022-yil 7-mart, PF-87-sonli.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 24-yanvarda Oliy Majlisga yo’llagan Murojaatno-masi.// “Xalq so‘zi”, 2020-y., 25-yanvar.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning 2021-yil 15-dekabr, PQ-52-son “Meva-sabzavotchilik sohasini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, tarmoqda klaster va kooperatsiya tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori.
8. Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 18-mart 2024-yil kuni qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat sanoati sohalarida investit-siyalar jalg qilish hamda eksportni ko‘paytirish masalalari muhokamasi bo‘yicha videoselektor yig‘ilishi o‘tkazildi.
9. Samarqand viloyati qishloq xo‘jaligi va statistika boshqarmasining 2021–2022-yil yakunlari bo‘yicha hisobotlari.
10. Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2022-yil yakuni bo‘yicha “O‘zbekiston Respublikasi davlat qarzi holati va dinamikasi sharhi”dagi ma’lumot.
11. Salamov I., Kazakova, Z.S., Nurmonov Sh.X. Menejment va marketing. Darslik. “Fan ziyosi ” nashriyoti. –T.-2023, 252 betli.
12. Salamov I., Jonibekov F., Kazakova Z., & Nazarova M. (2022). The Role of Investments in Ensuring the Economic Stability of Livestock and Prospective Opportunities.
13. Salamov I., Kazakova Z. S., Nazarova M. S., & Jonibekov F. B. (2022). Prospects for digitalization of order tables in infrastructure development in agriculture of the republic of Uzbekistan.
14. Odilovich O. A., Umirzokovich T. F., & Turdibaevich K. R. (2021). Increasing the Efficiency of Higher Education Personnel Training Management in Uzbekistan. Annals of the Romanian Society for Cell Biology, 9251-9264.
15. Ibodullayevich O. R. F., & Turdibayevich K. R. (2023). QISHLOQ XO‘JALIGIDA CHORVACHILIK MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH. MASTERS, 1(1), 119-126.
16. Mualiflarning ilmiy va amaliy tadqiqotlari hamda izlanishlari natijalari.
17. Toirov Maxmudxon Kuchli raqib mavjud salohiyatingning to‘liq ochilishiga xizmat qiladi, ojizi-loqaydlik kayfiyatini tug‘di-radi – O‘zbekiston qishloq va suv xo‘jaligi jurnali. №2, 2024-yil, 60- bet.
18. Internet saytlari:
19. www.gov.uz
20. www.lex.uz
21. www.publicfinance.uz
22. www.statistics.uz



Yashi

IQTISODIYOT
Va
TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Alfraganus universiteti dotsenti, i.f.f.d. (PhD) Fayziyev Oybek Raximovichning umumiy tahriri ostida nashrga tayyorlandi.

O'zbek tili muharriri: Ulug'bek Eshmuradov

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Rus tili muharriri: Abdimo'min Alikulov, i.f.d., professor

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Bobur Ochilov

2024. Maxsus son

© Materiallar ko'chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnalni manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodi materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

“Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnalni 03.11.2022-yidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027
Topshirildi: 10.04.2024-yil. Nashrga ruxsat etildi: 19.04.2024-yil.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnalning ilmiyligi:

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali
O‘zbekiston Respublikasi
Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro‘yxatdan o’tkazilgan.